



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 09 | pp. 48-55 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

MINTAQADA BANDLIKNI TARTIBGA SOLISH YO'NALISHLARI



Nurullayev Baxrom Botirovich,
Urganch Ranch texnologiya universiteti
Iqtisodiyot kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bandlikni tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari, nazariyalari va yondashuvlari, mavjud imkoniyatlari va yo'nalishlari yoritib berilgan. Shuningdek, Xorazm viloyati mintaqasida bandlikni amalga oshirish va samarali tartibga solish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Mintaqa, bandlik, aholi, siyosat, bandlik siyosati, davlat, usul, ish o'rinlari, budget, ishsizlik.

Kirish. Rivojlangan mamlakatlarida ish bilan ta'minlash dasturlariga davlat xarajatlari ajratiladi. Bu ommaviy ishsizlik paydo bo'lishining oldini olishga qaratilgan faol tartibga solish choralari shaklidagi davlat siyosati bo'lib hisoblanadi. Natijada, yetarli mablag'lar ajratilib, bandlik dasturlari ishlab chiqiladi. Davlat budjeti mablag'larini keng jalb qilgan holda investitsiya loyihalari amalga oshiriladi. Bu esa mamlakatlarga bandlik darajasini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu orqali iqtisodiyotga davlat ta'siri orqali bandlik muammosini oldini olishga erishiladi. Mamlakatda aholi guruhlari uchun yangi ish o'rinlarini yaratishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilib, buning uchun xususiy investitsiyalarni rag'batlantirish talab etiladi. Ushbu aholi bandligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solish borasida O'zbekiston Respublikasining O'RB-642-son qonuni qabul qilindi. Unga ko'ra, bandlik fuqarolarning qonunchilikda ta'qiqlanmagan, o'z shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qanoatlantirish bilan bog'liq bo'lgan, ularga ish haqi keltiradigan faoliyatidir [1]. Bu esa mintaqada bandlikni samarali tartibga solish uchun muhim me'yoriy-huquqiy hujjat bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish va uning xalqaro miqyosda raqobatbardoshligini oshirish asosiy maqsad sifatida qaraladi. Chunki, innovatsion iqtisodiyotga o'tish mehnat bozorini tubdan o'zgartirishga olib keladi. Samarasiz va kam maoshli ish o'rinlari zamonaviy talablarga javob beradigan ish o'rinlari bilan almashtiriladi. Tadbirkorlik subyektlari, davlat hokimiyati organlarining vazifasi yuqori texnologiyali zamonaviy ish o'rinlarini yaratish hamda aholi bandligining zamonaviy tuzilmasini shakllantirish bo'yicha rejalashtirilgan chora-tadbirlardan iborat bo'ladi. Bu esa bandlikni tartibga solish va bandlik faoliyati samaradorligini oshirishni taqozo qiladi. Bu esa biznes, bandlik darajasi va mehnat resurslarini oqilona taqsimlashni belgilaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Adabiyotlarda bandlikni tartibga solishning turli yondashuvlari va nazariyalari bo'yicha turli tadqiqotlar olib borilgan. Bu tadqiqotlar mintaqalar va hududlar uchun ham xos yo'nalish bo'lib hisoblanadi.

Aslida, bandlik - ishchi kuchiga bo'lgan talabni kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar va harakatlar majmuidir. Ularning tarkibiga foydali faoliyatga qo'shilish ko'lami, shartlari va shakllarini ta'minlash, aholini ish bilan band bo'lgan ishchilarni shakllantirish, taqsimlash, ulardan foydalanish, bo'shatish, qayta tayyorlash va qayta taqsimlash kabilar kiradi. Ushbu konsepsiya doirasida to'liq, oqilona va samarali bandlik turlari ajralib turadi [2].

To'liq bandlik mehnatning universalligi va majburiyligini aniq shaklda ijtimoiy-iqtisodiy amalga oshirish hisoblanadi. Bu esa mehnatga layoqatli aholiga ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullanish uchun haqiqiy imkoniyatlarni berish bilan bog'liq bo'ladi. Shunga asosan, to'liq ish bilan ta'minlash bo'sh ish o'rinlarining soni ishsizlar soniga to'g'ri keladigan yoki undan yuqori bo'lgan iqtisodiyotning holatini aks ettiradi.

Ratsional bandlik mehnat resurslarini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish jarayonlari, ularning jinsi va tarbiyaviy tuzilishi, mehnatga layoqatli aholini takror ishlab chiqarish rejimlari va uni hududga joylashtirish nuqtai nazaridan asoslangan bandlik turi bo'lib hisoblanadi.

Samarali bandlikka erishish esa iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlik mezonlari to'plami bo'yicha tanlangan mehnatni ko'paytirish jarayonlarini tashkil etish kabilarni o'z ichiga oladi. Ushbu bandlik boshqaruv tizimining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini aholi turmush tarzi mezonlari, ijtimoiy ishlab chiqarish intensivlashuvi va dinamizm talablariga mosligini nazarda tutadi.

Shuningdek, iqtisodiy nazariyada bandlik sohasidagi davlat siyosatini asoslaydigan, ishsizlik sabablarini tahlil qiladigan va unga qarshi kurashish choralari belgilaydigan quyidagi nazariyalar mavjuddir [3].

- klassik nazariyaga asosan bozor munosabatlarini o'z-o'zini tartibga soluvchi va to'liq ish bilan ta'minlaydigan iqtisodiyot bo'lib hisoblanadi hamda davlatning aralashmaslik siyosati bilan belgilanadi. Unga ko'ra, ishsizlikning mavjudligi ish haqining yuqori darajasi bilan izohlanadi. Agar mehnat bozori oddiy tovarlar bozori deb hisoblansa, unda tovarlarning narxi muvozanat narxidan yuqori bo'lsa, ishchi kuchi ta'minotidan oshib ketadi va natijada ishsizlik yuzaga keladi.

- keynsning bandlik nazariyasi jamiyatdagi yalpi talab ishlab chiqarish hajmi va ishchi kuchiga bo'lgan talabni boshqarishiga asoslanadi. Keyns so'zlariga ko'ra, davlatning ishsizlikni oldini olishning asosiy vositasi moliyaviy siyosat bilan belgilanadi. Davlat xarajatlarini ko'paytirish va soliqlarni kamaytirish orqali iqtisodiyotda yalpi talabni oshirish mumkin. Bu esa ishchi kuchiga talabning oshishi va ishsizlik darajasining pasayishiga olib keladi. Shunday qilib, keyns tahlili milliy ishlab chiqarish va bandlikni belgilovchi asos sifatida umumiy xarajatlar muammosi sifatida qaraladi. Eng oddiy keyns modeli iqtisodiyotda inflyatsiya yoki ishsizlik paydo bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

Ba'zi bir tadqiqotlarda esa yangi iqtisodiy sharoitda bandlikni tartibga solishda davlat rolining sezilarli darajada oshishi ilgari surilgan. Bandlik va mehnat bozorini tartibga solishning yana bir mexanizmi mehnat migratsiyasidir. Bu mehnatga layoqatli

aholini ish bilan ta'minlash uchun qulayroq shartlarda bir mintaqa yoki mamlakatdan boshqasiga ko'chirish jarayonini anglatadi [4].

Boshqa tadqiqotlarda esa davlat tomonidan bandlik sohasining rivojlanishi turli usullarning ta'siriga bog'liqligi asoslangan. Davlatning bandlik sohasiga ta'sir qilish usullari qatoriga quyidagilar kiradi [5]:

- iqtisodiy usullar. Ular tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy manfaatlarini rag'batlantirish uchun foyda orqali ta'sir qilishni o'z ichiga oladi. Ushbu usul vositalari soliqqa tortish, imtiyozli kreditlash, ish o'rinlarini yaratish va saqlashga qaratilgan tarif va budjet siyosati, kasbiy tayyorgarlik, innovatsion ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash bilan belgilanadi.

- tashkiliy usullar. Ular bandlikka ko'maklashish davlat va nodavlat markazlari, tadbirkorlar va xodimlar uchun mehnat bozorini axborot bilan ta'minlash, maslahat markazlari, mehnat sohasida yuridik xizmatlar, yoshlarni kasbga yo'naltirish tizimlari va kasb-hunar ta'limi tizimida o'quv markazlarini tashkil etishni nazarda tutadi.

- ma'muriy-huquqiy usullar. Ular mehnat qilish huquqidan boshlab, fuqaroning mehnat qilish muddati, ish kunining davomiyligini belgilash, ishchilarning huquqlarini himoya qilish va normativ hujjatlar bilan tugaydigan me'yoriy-huquqiy hujjatlar tizimi orqali davlatda bandlik va mehnat munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan mehnat munosabatlari sohalaridagi standartlar, cheklovlar, ko'rsatmalar va tartiblar bilan namoyon bo'ladi.

Boshqa tadqiqotlar ish bilan bandlik dinamikasidagi o'zgarishlarning barqaror boshqaruv, protsessual nazorat, institutsional boshqaruv va hisobdorlikka bog'liqligi asoslab berilgan. Xususan, bu borada tartibga solish, uning shartlari, tabiati va sifati va mehnat munosabatlarini shakllantirishga e'tibor qaratilmoqda. Bu borada xalqaro va qiyosiy inson resurslarini boshqarish bandlikni tartibga solish roli va mamlakatlar o'rtasidagi o'zgarishlar bilan asoslanadi. Tartibga solish raqobatbardosh ijtimoiy va iqtisodiy talablar markazida joylashgan bo'lib, ular bir-birini to'ldiruvchi bo'lib hisoblanadi va uning murakkabligi esa nazariy va empirik xaritada ko'rsatilishi lozim [6]. Bu esa turli dinamika, jarayonlar va tuzilmalardagi o'zgarishlar hamda bandlikni tartibga solish bilan bog'liq masalalarni muhokama qilishni taqozo qiladi. Shu orqali ish bilan bandlikni tartibga solishni o'rganish ushbu sohadagi tadqiqotlarni samarali rivojlantirishdagi muhim qadam bo'lib hisoblanadi.

Bandlikni tartibga solish tendensiyalariga asoslangan tadqiqotlar mintaqaning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Mazkur tendensiya barqaror ijtimoiy-iqtisodiy ahvolga ega bo'lgan shaharlar toifasida namoyon bo'ladi. Bu esa ushbu hududlar sharoitining yomonlashuvini va milliy iqtisodiyot rivojlanishining salbiy tendensiyasidan dalolat beradi. Xususan, olingan amaliy natijalardan mintaqaviy hokimiyatlarga asoslangan monoshaharlarda xavfli bandlikni kamaytirish choralarini ishlab chiqishda foydalanish mumkin [7]. Bu orqali monoshaharlarni rivojlantirish borasida davlat tomonidan chora-tadbirlarni amalga oshirish va ushbu shaharlarni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash uchun moliyalashtirish masalasi hal qilinadi.

Boshqa bir tadqiqotlar bandlikni ta'minlashdagi muhim muammo sifatida ishsizlikni oldini olish chora-tadbirlar bilan belgilanadi. Uzoq vaqt davomida xavf ostida bo'lgan ishsizlarni ishga joylashtirish uchun bandlikka ko'maklashish bo'yicha intensiv

dasturlarni o'z ichiga olgan profil texnologiyalaridan foydalanish mumkin [8]. Shu bois, ommaviy ishsizlikka olib keladigan tarkibiy, ilmiy-texnikaviy va mintaqaviy siyosatdan kelib chiqadigan turli oqibatlariga ta'sir qiladi.

Shuningdek, boshqa tadqiqotlar bandlikni tartibga solishga qaratilgan mehnat bozoridagi o'zgarishlarni amalga oshirishni taqozo qiladi. Buning uchun ushbu bozordagi o'zgarishlarni prognoz qilish maqsadga muvofiq. Milliy va mintaqaviy darajadagi mehnat bozoriga nisbatan davlatning choralari rivojlangan bozor iqtisodiyoti uchun xos bo'ladi. Mehnat bozori ijtimoiy-iqtisodiy mexanizm sifatida dinamik holatda bo'lgan va muvozanatga intiladigan boshqa bozorlardan farq qiladi. Mehnat bozorida nomutanosiblik norma hisoblanib, talab va taklifning mos kelishi qisqa muddatli va beqaror holat sifatida qaralishi lozim [9].

Tadqiqotlarga ko'ra, makroiqtisodiy barqarorlashtirish va mehnat unumdorligini oshirishga ko'ra faol bandlik siyosatiga o'tish mehnat bozorini tartibga solishning asosiy ustuvor yo'nalishlariga aylanishi lozim. Mehnat bozorining makrodarajada ish kuchiga bo'lgan talabning yuqoriligi va ro'yxatga olingan ishsizlik darajasining pastligi bilan bog'liq bo'lgan xususiyatlarining shakllanishi ish beruvchilar va xodimlarning moslashuv mexanizmlari bilan bog'liq bo'ladi [10].

Mehnat bozoridagi tadqiqotlar bandlikka ta'sir qilishga asoslanadi. Mahsulot va mehnat bozorini tartibga solish o'sish va bandlikka ta'sir qilishi mumkin bo'lsa-da, bu holat mahsulot bozorini tartibga solish yanada muhimroq bo'lishi mumkin [11].

Mamlakatimizda bandlikni tartibga solish turli maqsadlarga qaratilgan bandlik siyosati orqali amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasida davlat bandlik siyosati investitsion, moliya-kredit, soliq va ijtimoiy siyosat choralari yordamida amalga oshiriladi [12].

Bandlikni tartibga solish tadqiqotlari bevosita ish bilan bandlikni tadqiq qilishga asoslanadi. Ish bilan ta'minlashning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy shartlari hamda mehnat qilish huquqini amalga oshirishning kafolatlari mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar bilan belgilab qo'yiladi [13].

Mazkur tadqiqotlar bevosita bandlikni tartibga solish yo'nalishlarini ilmiy asoslashga qaratilgan tadqiqotlar bo'lib hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada mintaqada bandlikni tartibga solish yo'nalishlarini batafsil tadqiq qilish maqsadida tadqiqotning tahlil, sintez, iqtisodiy usul, mantiqiy tahlil, induktiv, deduktiv va abstrakt fikrlash kabi usullardan samarali foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Mamlakatimizda bandlikni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmi quyidagi usullarga asoslanadi:

- iqtisodiy usullar (imtiyozli kreditlash va soliqqa tortish, tadbirkorlarni ish o'rinlarini saqlash va yaratishni rag'batlantirish uchun budjet siyosati, kasbiy kadrlar tayyorlash va boshqalar);

- tashkiliy usullar (ish bilan ta'minlash xizmati, mehnat bozoriga xizmat ko'rsatadigan axborot tizimi, kasbga yo'naltirish, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash davlat tizimini yaratish va boshqalar);

- ma'muriy va qonunchilik usullari (mehnat shartnomalarini tuzish tartibini tartibga solish, ish vaqti, ortiqcha ish vaqti, tadbirkorlarni bandlikni ta'minlash bo'yicha milliy

jamg'armalarga mablag' ajratish, ishga joylashish kvotalarini belgilash, mehnat hayoti davrini tartibga solish va boshqalar).

Davlat tomonidan mehnat bozoriga nisbatan turli ta'sir choralari qo'llaniladi. Bu esa mintaqalar uchun xos bo'lib, quyidagi yo'nalishlardan iborat bo'ladi:

- bilvosita ta'sir choralari. Bevosita yoki to'g'ridan-to'g'ri ta'sir choralari mehnat bozorining alohida va o'ziga xos jihatlarini asoslashga qaratilgan davlat dasturlari orqali amalga oshiriladi. Ya'ni, bu tanlangan yo'nalishga ega bo'lib, mehnat ta'minoti dinamikasiga ham ta'sir qiladi.

- to'g'ridan-to'g'ri ta'sir choralari. Bilvosita ta'sir choralari iqtisodiy sharoitlarni saqlash yoki o'zgartirishga qaratilgan va makroiqtisodiy ta'sir vositalaridan samarali foydalanishni o'z ichiga oladi. Ular tarkibiga mehnatga bo'lgan talabni tartibga solish shartlari kiradi.

Shuningdek, mintaqaholisining iqtisodiy faolligi darajasining oshishiga mehnat bozorida an'anaviy ravishda kam ishtirok etadigan aholi toifalari, xususan keksa avlod vakillari, nogironlar va ota-ona ta'tilida bo'lgan shaxslarni mehnat faoliyatiga keng jalb qilish imkon beradi. Biroq, mintaqada bandlik siyosatida davlat ta'sirining choralari tanlashga qarab, mehnat munosabatlarini tartibga solish yo'nalishlari faol, o'rtacha passiv va passiv shakllarga ajratiladi. Bandlik siyosatining faol varianti investitsiya, moliya, kredit, soliq va budget siyosatidan intensiv foydalanishni o'z ichiga oladi. Bandlik siyosatining passiv varianti bo'sh ish o'rinlarini to'ldirish va bandlik organlarining moliyaviy imkoniyatlariga qarab ishsizlik nafaqalarini to'lashga asoslanadi.

Fikrimizsa, mintaqada ishchi kuchini erkin sotishga to'sqinlik qiladigan ma'muriy, huquqiy va iqtisodiy cheklovlarni olib tashlash lozim. Ular ro'yxatdan o'tish institutini bekor qilish, uy-joy bozorini rivojlantirish, davlat mulki monopoliyasini yengib o'tish va aholi bandligini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmiga asoslanadi.

Davlatning bandlik siyosati moslashuvchan bo'lishi va ishsizlarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari maqsadli bo'lishi kerak. Shu bois, mintaqaholis mehnat bozorida o'ta og'ir ahvolda bo'lgan fuqarolarga alohida e'tibor beriladi. Ularni ish bilan ta'minlash imkoniyatlari, jumladan, kasbiy tayyorgarlik va malaka oshirish orqali kengaytirish kerak.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bugungi kunda Xorazm viloyati mintaqasida bandlik siyosatini tartibga solish borasida tegishli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu holatni quyidagi statistik raqamlar bilan ko'rish mumkin (1-jadval).

1-jadval

2023-yilda Xorazm viloyati tumanlari bo'yicha iqtisodiy faol aholi, bandlar va ishsizlar soni [14]

Hududlar nomi	Iqtisodiy faol aholi soni jami, ming kishi	ulardan:		Ishsizlik darajasi, foizda
		iqtisodiyotda bandlar	ishsizlar	
Xorazm viloyati	831,4	776,5	54,9	6,6
Urganch shahri	90,1	84,9	5,2	5,8
Xiva shahri	38,9	36,3	2,6	6,6
Bog'ot tumani	72,0	66,9	5,1	7,1

Gurlan tumani	66,7	62	4,7	7,0
Qo'shko'pir tumani	70,6	65,7	4,9	6,9
Urganch tumani	85,1	79,6	5,5	6,4
Hazorasp tumani	79,7	74,6	5,1	6,3
Tuproqqaal'a tumani	26,6	24,9	1,7	6,4
Xonqa tumani	81,5	76,4	5,1	6,3
Xiva tumani	58,2	54,3	3,9	6,7
Shovot tumani	74,7	69,7	5,0	6,6
Yangiariq tumani	49,3	45,9	3,4	7,0
Yangibozor tumani	38,0	35,3	2,7	7,1

Ushbu 1-jadvalga asosan, 2023-yilda Xorazm viloyati bo'yicha iqtisodiy faol aholi soni jami 831,4 ming kishini tashkil etgan bo'lsa-da, ulardan iqtisodiyotda bandlar 776,5 ming kishiga va ishsizlar esa 54,9 ming kishiga to'g'ri kelgan. Ishsizlik darajasi esa 6,6 foizni tashkil etgan. Ushbu holatlar mintaqada bandlik sohasini tartibga solishga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rsatadi.

Shu bilan birga, mintaqa iqtisodiyotini tarkibiy o'zgartirishni amalga oshirish uchun ikkilamchi bandlik, xotin-qizlar va yoshlarning mavsumiy bandligi masalalarini hal etish, o'smirlarning kasbga yo'naltirish tizimini rivojlantirish, yoshlar va xotin-qizlar tadbirkorligi va bandligini qo'llab-quvvatlash hamda ishsizlarni ishga joylashtirish muammosiga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim. Hamda mintaqada ishsizlik muammolarini hal etish davlat investitsiya siyosati bilan chambarchas bog'liq bo'lishi lozim.

Umuman olganda, mintaqaviy bandlikni tartibga solish quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali uzoq muddatli maqsadlariga erishishga imkon beradi:

- mamlakatdagi iqtisodiy muhitni yaxshilash, investitsiya faolligini rag'batlantirish va iqtisodiy o'sishga erishish;
- iqtisodiyotning nodavlat sektorida bandlikni kengaytirish, jumladan kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va bandlikni ta'minlash uchun yetarli shart-sharoitlar yaratish;
- aholini biror-bir ish bo'yicha kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash.

Shular bilan birgalikda mintaqa sharoitida ro'yxatga olingan bandlik sohasini kengaytirish, mehnat munosabatlarning moslashuvchanligini yanada oshirish va ularning iqtisodiy kon'yunktura o'zgarishlariga moslashishini ta'minlash, shuningdek, xodimlarning harakatchanligini kuchaytirish lozim. Bu borada mintaqada bandlik siyosati mehnatini yo'qotgan shaxslarni bandlik sohasiga tezda qaytarish bo'yicha samarali chora-tadbirlar tizimini shakllantirish va amalga oshirishga qaratilishi kerak.

Ayniqsa, mintaqa iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lganlar sonining o'sishi ishchi kuchining ko'payishi, aholining ishchi kuchiga jalb qilinishining o'sishi va "neytral" ishsizlik darajasining pasayishi muvozanatli xususiyatlarga ega bo'lishi kerak. Bu borada mintaqada ishchi kuchining ko'payishiga umr ko'rish davomiyligi va sog'lom umr ko'rish davomiyligini oshirish hamda moslashuvchan migratsiya siyosati orqali migratsiya o'sishini ta'minlash kabi omillar va shart-sharoitlar imkon beradi.

Darhaqiqat, mintaqada bandlik sohasini tartibga solishning asosiy yo'nalishlariga quyidagi yo'nalishlar xos bo'ladi:

- mehnat bozori va mehnat munosabatlarini qonunchilik bilan tartibga solish;
- ishlovchi aholi guruhi uchun eng kam ish haqi miqdorini belgilash;
- aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari uchun yangi ish o'rinlari tashkil etish va ularning bandligini ta'minlashga ko'maklashish;
- ishsizlik bo'yicha davlat nafaqalarini o'z vaqtida to'lab borish;
- kadrlarni qayta tayyorlash va o'z vaqtida malakasini oshirish;
- bandlik davlat xizmatini shakllantirishda bevosita davlat ishtirokini ta'minlash.

Shuningdek, mintaqada bandlikni tartibga solish jamoat ishlarini tashkil etish bilan ham bog'liq bo'ladi. Bu esa noijtimoiy ishlar orqali ishsizlarni ish bilan ta'minlashning samarali usuli sifatida ijtimoiy keskinlikni yumshatish vositasi bo'lib hisoblanadi. Jamoat ishlarini rivojlantirishga ko'ra ishsiz fuqarolar jamoat ishlarida faol qatnashish davrida bandlik xizmati organlarida ro'yxatdan o'tkaziladi. Shu bois, ish beruvchilar va ishsizlar uchun jamoat ishlarida ishtirok etishini ta'minlash talab etiladi. Biroq, ularga nafaqa to'lash bo'yicha uzoq muddatli qarzdorlik, ish haqini o'z vaqtida to'lamaslik va jamoat ishlari turlarining cheklangan ro'yxati jamoat ishlarida faol ishtirok etishga salbiy ta'sir qiladi.

Fikrimizcha, mintaqada jamoat ishlari tizimini rivojlantirish quyidagi yo'nalishlardan iborat bo'ladi:

- ijtimoiy ishlarni tashkil etishning normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish;
- jamoat ishlari ro'yxatini yanada kengaytirish;
- jamoat ishlarini tashkil etuvchi ish beruvchilarga soliq imtiyozlarini berish;
- jamoat ishlarida ishtirok etish masalasi bo'yicha band bo'lmagan aholi, ish beruvchilar va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarini to'liq xabardor qilish;
- ijtimoiy ish joylarida ish haqi miqdorini yanada oshirish.

Xulosa va takliflar. Ish bilan ta'minlash mamlakat qonunchiligiga zid bo'lmagan va ularga daromad olib keladigan fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq faoliyati hisoblanadi. Bu borada aholi samarali va ijodiy mehnat qobiliyatini nazorat qilish huquqiga ega bo'ladi. Shunga asosan, mintaqada bandlikni tartibga solish ish qidirayotgan fuqarolarni ishga joylashtirishni tashkil etish tizimini takomillashtirish bilan bog'liq bo'ladi. Buning uchun bandlik masalalarini amalga oshirishda mavjud tamoyillarni to'liq hisobga olish lozim. Bu esa iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish va ishsizlarni ishga joylashtirish borasida ish beruvchilar bilan aloqalarni kengaytirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, mintaqada ish joylarini tanlashga alohida e'tibor qaratish va uning intensiv usullaridan samarali foydalanish lozim. Xususan, korxonalar ro'yxati, ish qidirish rejalari, ishsizlar toifalarini guruhli qayta ro'yxatga olish shular jumlasidandir. Aholini ish bilan ta'minlashda barcha manfaatdor tomonlarning faol va birgalikda ishtirok etishini ta'minlash lozim. Unda markaziy va mahalliy hokimiyat organlari o'zaro hamkorlikda ishlashlari kerak. Kelgusida bandlik siyosatini jadal rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish orqali hududiy ishlab chiqarish majmualarini yaratish ham talab etiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mintaqada bandlikni tartibga solishda mavjud muammolarni hal qilish usullari quyidagi yo'nalishlardan iborat bo'ladi:

- aholi guruhlari uchun ish o'rinlari tizimini rivojlantirishni samarali tartibga solish konsepsiyasini ishlab chiqish;

- ish joylariga nisbatan aholining mavjud talabi va qiziqishlarini o'z vaqtida o'rganib borish;

- aholini kelajakda xodim sifatida shakllantirish uchun kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 20-oktabrdagi "Aholi bandligi to'g'risida"gi O'RB-642-son qonuni. Manba: <https://lex.uz/docs/5055690>

2. <https://studfile.net/preview/7673479/page:27/>

3. Ситникова В.В. Занятость населения и ее регулирование. Учебное пособие. – Благовещенск: Амурский гос. ун-т, 2017. – С. 155.

4. Куренков А.В. Занятость населения и ее регулирование: учебное пособие. – Томск, 2017. - с. 33.

5. Белохвостова Н.В. Механизмы государственного регулирования занятости населения [Электронный ресурс] // Сервис в России и за рубежом. 2016. № 6 (67). Т. 10. С. 94-95. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/mehanizmy-gosudarstvennogo-regulirovaniya-zanyatosti-naseleniya> (дата обращения: 23.10.2016)

6. [Jenny K. Rodriguez, S. Johnstone, S. Procter](#). Business, Political Science, Economics, Law. // The International Journal of Human Resource Management, Published 30 November 2017. - pp. 2957-2982.

7. Sedova N., Ugrumova A., Garnov A., Oigarenko D. Regulating employment in monocities: foreign experience and russian practice. // International Journal of Management (IJM), Volume11, Issue6, June 2020. - p. 164.

8. Бабашкина А.М. Государственное регулирование национальной экономики: Учебное пособие. – М.: Финансы и статистика, 2007.

9. Яппаров Д.А. Управление занятостью населения на региональном уровне. Специальность: 08.00.05 – Экономика и управление народным хозяйством (региональная экономика; экономика труда). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. - Ижевск, 2007. - с. 8.

10. Gabzalilova V.T. Perfection of regulation processes of population employment in Uzbekistan. // Proceeding of Uzbek-Indonesian Joint International Conference Gunadarma University – Jakarta, 18 October 2011, Vol. 1 - October 2011. - p. 34.

11. Employment regulation and the labour market. Policy report, January 2015. - p. 6.

12. Ismailov A. Aholi bandligi sohasidagi davlat siyosatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari. // Alfraganus xalqaro ilmiy jurnali, 1 (6), 2024. - 9 b.

13. Aholi bandligi va uni tartibga solish fanidan ma'ruzalar matni. – Farg'ona, 2012. - 12 b.

14. <https://xorazmstat.uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market-2>

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

